

**ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG IJODIDA BOLALIK VA
BEG'UBORLIK FALSAFASI HAMDA "MENING BOLALIGIMNING
KO'CHALARI" ASARI TAHLILI**

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari

universiteti Ingliz filologiyasi

fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg(1939-2009)- o'zbek adabiyotida o'z ovoza ega va falsafiy mulohazaga boy purma'no asarlari bilan butun dunyo kitobxonlari qalbidan joy olishga sazovor bo'lgan buyuk ijodkorlardandir.U nafaqat shoir,balki nasr va dramaturgiya sohasida ham yuksak darajada faoliyat yuritgan.Insonning ruhiy olami,xotiralar,bolalik,ezgulik falsafalari shoir ijod yo'lida eng asosiy mavzulardan sanaladi.Ayniqsa,ijodkor qalamiga mansub bo'lmish "Mening bolaligimning ko'chalari"(1999) asari- shoir hayotiy tajribalarini,insonning o'tgan hayotiga bo'lgan mehr va sog'inchi samimiyat ila bayon etilgan durdona asardir.

Kalit so'zlar: nasr,lirizm,bolalik falsafasi,beg'uborlik,"Mening bolaligimning ko'chalari",avtobiografik asar,xotira,ezgulik,umuminsoniy qadriyatlar,insoniylik.

Aleksandr Arkadevich faynberg uchun bolalik bu shunchasi inson umrining oddiy pallasi emas,balki inson ruhi eng sof va eng beg'ubor bo'ladigan davri sanaladi.Uning she'rlari va nasrda yozgan asarlarida bolalik har doim yorug'lik,sadoqat,ezgulik, va umidning so'ngsiz manbai sifatida yoritib beriladi. Shoir bolalik haqida shunday jumlani aytgan edi:"Bolalik –bu faqat o'tgan kunlar emas,bu qalbimizda yashaydigan eng so'nggi poklikdir." Bu fikr orqali Faynberg bolalikni falsafiy tushuncha orqali talqin etadi.Shoir uchun bolalik inson ruhida,qalbida abadiy yashovchi,vaqt o'lchovi bilan ishi bo'lmagan ma'naviy holatdir.Haqiqatan ham biz insonlar qancha ulg'aysak ham,qalbdagi yomon insonlarning yomonligidan jarohat olsak ham vaqti-vaqti bilan bolalik qilgimiz,shodon xandon otgimiz,kechirib bo'lmas ayblarni ham kechirgimiz keladi va shunday qilamiz ham.Bu shoir e'tirof etgan o'sha ruhimizdagi samimiy bolalikning natijasi emasmi? Eng muhim jihat shundaki,shoir so'zlari asrlar o'tsa-da o'z mazmunini yo'qotmaydi,chunki ular qalbdan aytilgan.

"Mening bolaligimning ko'chalari" asari avtobiografik asar bo'lib,unda shoir o'zining o'sha olis bolaligini,Toshkentdagi eski ko'chalarini,u yerdagi odamlarni,ularning sodda va mehribonligini muhabbat bilan tasvirlaydi.Faynberg ijodiyotida bolalik mavzusini olib chiqar ekan,u bolalikni shunchaki tasvirlabgina qolmay,hozirgi zamon bilan qiyoslaydi,o'zi bolaligida chin qalbdan tuygan

samimiyat,insoniylik,mehrni izlaydi va ba'zan ularning hozir yo'qolganidan ma'yusgina shikoyat qilib qo'yadi."Men o'sha tor ko'chalarda yugurib yurgan bolakayni eslayman.U hali urushning nima ekanini bilmas,lekin osmonni yaxshi ko'rar edi..."Bu jumladan ijodkor urushdan keyingi avlodning bolalik xotiralarini mohrlik bilan bayon etadi.Toshkent,ochlik,qo'rquv,ammo shu bilan birga-mehr,qo'shnihilik,insoniy birdamlik motivlarini ko'rsatib beradi.

Asarda "ko'cha" obrazi ramziy ma'noga ega- u hayot yo'li,o'tgan vaqt,xotira va insonning o'zligini anglash jarayonini bildiradi.Faynberg uchun o'sha ko'chalar beg'uborlik makoni,ezgulikning ildizi sanaladi. "Ko'chalar o'zgardi,devorlar yangilandi,faqat bolaligimdagi ovozlari yuragimda hali ham yangraydi." Bu satrni keltirish asnosida muallif zamon o'tganini,lekin bolalik xotirasi inson ruhida o'chmas iz qoldirganini ta'kidlaydi.Beg'uborlik esa inson ichki olamining pokligini,mehr,orzu va ishonchning samimiy ramzi sifatida gavydalantirib beriladi.

Faynberg nasrida lirizm va falsafa o'ziga xos uygu'nlikni namoyon etadi."Mening bolalimning ko'chalari" asari liriko-avtobiografik nasr janriga mansubdir.Unda hikoyalar shunchalik sokin,bosiq ohangda tasvirlanganki,bularning barchasi chuqur mazmun bilan birlashi asarni ajayib darajaga chiqargan.E'tiborli jihatlardan biri,ijodkor kichik detallar orqali katta hayotiy va achchiq haqiqatlarni ko'rsatib beradi:bolakayning bir bo'lak nonni bo'lishib yegani urushdan qaytgan otalar,eshik oldida kutib o'ttirgan onalar...Bu obrazlar zahirida yuksak sabr,insoniy birdamlik,mehr,umid yotibdi.

Asarni o'qir ekanmiz,vaqtning suvdek o'tishi muallifni aslo tashvishga solmasligini,aksincha u o'tmishdan hayotiy saboqlar manbai sifatida foydalanishiga amin bo'lamiz."Men bolaligimga qaytmoqchi emasman.U allaqachon men bilan,yuragimda yashaydi."Faynbergning hayotiy falsafasi bolalikni unutmasdan,uni qalb tubida saqlash,hayot to'zonlarida o'sha poklikni yo'qotmaslikdir va yuqorida keltirilgan jumlada mana shu beqiyos fikr o'z ifodasini topgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki,Faynbergning bolalik,beg'uborlik va samimiyatga limmo-lim asarlarini o'qish chog'ida kitobxon o'sha hislarni chuqur his eta oladi,kezi kelsa o'sha davr insonlari-yu shoirning og'ir kechgan bolaligiga hamdardlik bildiradi.Buning sababi shundaki Faynberg qog'ozga shunchaki so'zlarni emas,qalb qo'ridagi hislarni ko'chira olgan ajayib iste'dod egasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Faynberg, A.A. Mening bolaligimning ko'chalari.-Toshkent: "Sharq",1999.
2. Faynberg, A.A Tanlangan asarlar.- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti,1985.
3. Karimov,N.O'zbek adabiyotida lirizm va ruhiy kechinmalar.-Toshkent:Fan,2003.
4. Rahmonov,S. XX asr nasrida shaxs va zamon muammosi.- Toshkent:Universitet,2010.
5. Ziyoz.com-Aleksandr Arkadevich Faynberg asarlari elektron kutubxonasi.